

## **ONA TILI TA'LIMIDAGI DARAJALI TESTLAR VA ULARDAGI KAMCHILIKLAR**

***Komilova Lola Nasilloyevna***

*ToshDO 'TAU tayanch doktoranti*

*Annotatsiya:* ushbu tezisda ona tili ta'lqidagi darajali testlarning ayrim kamchiliklari va ularning yechimlari haqida mulohaza qilingan.

**Key words:**ona tili ta'limi, darajali test, muqobil javobli testlarning kamchiliklari.

“Ona tili ta'limi dunyoning barcha burchaklarida barcha zamonlarda insonni komillikka yetkazishdagi favqulodda muhim jarayonlardan biri sifatida qaralgan. Bashariyat tarixida maktab degan muhtasham muassasaning ibtidosi hisoblanmish qadimgi shumer maktablarida, ya’ni eramizdan oldingi uchinchi ming yilliklarning boshida ilk ta’limning ikki ustunidan biri ona tili darslari (ikkinchisi matematika) bo‘lganligi turli manbalarda qayd etilgan. Demakki, kamida besh ming yildan beri ona tili muayyan bir tizimga solingan darslar o‘laroq o‘qitib kelinadi. Aytish mumkinki, shuncha vaqtidan buyon inson aqli odam bolasida o‘z ona tilini o‘rgatish va bu o‘rgatishning eng qulay va eng samarali yo‘llarini izlashdan to‘xtamaydi.”<sup>1</sup> Albatta, ta’lim berish metodlari zamonlar osha sayqallanib o‘z vazifasini ado etmoqda. Ona tili ta’limida 1992-yildan boshlab pedagogik testlardan kirish imtihonlarida foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunga qadar darajali testlarning “Muqobil variantli” turidan ta’lim jarayonida juda keng miqyosda foydalanyapmiz. To‘g‘ri, bunday testlar ta’lim jarayonida vaqtini tejash bilan birga baholash bosqichini ham qamrab oladi. Ammo ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan tanlov javobli test topshiriqlarida javoblarning faqat bittasi to‘g‘ri, qolganlari noto‘g‘ri, lekin to‘g‘riga yaqin bo‘lishi ta’kidlanib o‘tilgan edi. Bunday topshiriqlarda to‘g‘ri javob faqat bitta bo‘lganidan (masalan, 5 javobli topshiriqlarning to‘g‘ri axborot

sig'imi atigi 20% ga teng) ulardan asosan o'quvchining o'qish jarayonida olgan bilim va malakalariga baho berishda foydalanish mumkin. Bugun biz yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan o'qish va yozish savodxonligi va grammatik savodxonlikka ega bo'lgan hozirgi zamon talablariga javob beradigan shaxs qilib yetishtirishni maqsad qilganmiz. Ona tili ta'limida matnlar asosidagi darajali testlardan foydalanish bosqichidamiz. Quyida an'anaviy test topshiriqlaridagi kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan.

***TEST TOPSHIRIQLARINING ASOSIY KAMCHILIKLARI:***

1. Topshiriqlarning ilmiy asoslanmaganligi. Bu turdagি kamchiliklar o'quv materiallari mazmunini yetarli darajada anglab olinmasdan tuzilgan testlarda uchrab turadi.
2. Topshiriqlar va ularga taklif etilgan javoblarning chalkash tuzilganligi.
3. Topshiriqlar shartining aniq bayon qilinmasligi. Bunday topshiriqlar odatda grammatik va ilmiy jihatdan noto'g'ri tuzilgan testlarda uchrab turadi
4. Topshiriqlarda statistik xarakterdagi ma'lumotlarning ko'p bo'lishi. Oddiy faktlar, voqealar, sanalar, atamalar, ism-shariflar, ya'ni statistik xarakterdagi ma'lumotlarni eslab qolishni talab etadigan topshiriqlar butun testing 15-20% ni tashkil etadi. Bunday testlar ko'proq xotira bilan bog'liq bo'lgan fenologik darajadagi bilimlarni nazorat qiladi, xolos. O'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha material vaqt o'tishi bilan unutilishi mumkin. O'zlashtirib olingan tushunchalar va ularning yangi sharoitda tatbiq qilinishi esa umuman unutilmaydi yoki xotirada uzoq yillar davomida umumlashib qoladi.
5. Umumlashtiruvchi topshiriqlarning yo'qligi.

6. Test topshiriqlari shartlari va ularga taklif etilgan javoblarni ta'riflashda ko'p so'zlilik. Test topshiriqlari va ularga beriladigan javoblarning ko'p so'zliligi ularning mazmunini tushunib olishni qiyinlashtiradi, o'quvchi beshinchi javobni o'qib bo'lguncha, birinchisi esidan chiqadi.

Asos qismining aynan takrorlanishidan hosil bo'lgan, holatga taqlidni bildiruvchi takror taqlid so'z qaysi gapda hol vazifasini bajargan?

- A) Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltiray boshladи.

B) Vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib hazilomuz qichqirdi.

C) Qimmatbaho buyum quyosh nurida yarq-yurq tovlanardi.

D) To'rtta savag'ich bilan tap-tap urdi.

E) Yomg'ir shitir-shitr yog'di.

7. Taklif etilayotgan javoblarni topshiriqlar shartiga mos bo'lmasligi.

Uncha-muncha tuzilishiga ko'ra qanday olmosh?

A)juft

B)sodda

C)takroriy

D)qo`shma

8. Taklif etilayotgan to'g'ri javobning noto'g'ri javoblardan aniq ajralib turishi. Bunday topshiriqqa to'g'ri javob topish un kuzatishning o'zi kifoya qilinadi, odatda, bu xildagi topshiriqlarning javobi savolning shartidan ma'lum bo'lib qoladi O'zlik olmoshi kesim vazifasida kelgan gapni toping.

A)O'zga yurtda shoh bo'lgandan o'z yurtingda gado bo'l.

B)Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'idek asraymiz.

C)O'zingni er bilsang,o'zgani sher bil.

D)Yutuqlar o'zimizniki.

9. Topshiriqqa berilgan javoblar orasida bir necha to'g'ri javoblarning bo'lishi.

Eski o'zbek tilida kamtarlik ifodasi sifatida men o'rnida ko'pincha qaysi so'z va birikmalar qo'llanilladi?

A)faqir,kamina

B)kaminayi kamtaringiz,qulingiz

C)bandayi ojizingiz

D)hammasi

Test tuzishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar o'quvchilarning topshiriqni to'g'ri tushunib olishlariga xalaqit berishi va kutilgan natijani bermasligi mumkin. Demak, test topshiriqlarini mukammal, bugungi ta'lim standartlariga mos ravishda tuzish lozim. Bugungacha qo'llanilgan testlar xotira bilan bog'liq bo'lib o'quvchi hayotda amalda qo'llashi qiyin edi, lekin hozirda matn asosidagi yangicha testlarimiz har ikkala tomonni to'ldirish uchun xizmat qilmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи “Ta'lif to‘g‘risida” gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “O'rta ta'lif va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifining davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
4. Mahmudov N. Zamonaviy ona tili ta'lifi “Til va adabiyot ta'lifi” – T.2013.3-son, 6-b.
5. Safo Matchonov, Sharifjon Sariyev. Adabiyot fanidan mavzuli test topshiriqlari to‘plami. -T. —Sharq|. 2011.
6. Hamzayev Madrim. Ona tili mavzuli test topshiriqlari to‘plami. -T. —Sharq. 2012.
7. Axborotnama IX. O'zRVM huzuridagi Davlat test markazi.-T. 2001.